

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

A.A.Abduxalimov	
Andijon viloyatida sog'liqni saqlash muassasalari faoliyatidan.....	213
F.K.Yusupjanova	
Turli tizimli tillarda "head/bosh/ голова" somatik komponenti bilan makallarning qiyosiy-tipologik o'rganish	217
F.M.Mamadjanov	
Katta ma'lumotlar asrida milliy xavfsizlik tadqiqotlari.....	227
M.Komilova	
Imkoniyati cheklangan o'quvchilarni ta'limga jalb qilish.....	233
A.A.Abduxalimov	
Namangan viloyatidagi shifoxonalar faoliyati va ularning moddiy-texnik holati.....	239
I.R.Asqarov, M.M.Akbarova, Z.A.Smanova	
Portulaca oleracea o'simligining kimyoviy xossalari	242
S.M.Isroilova	
Muloqot qilish rus tilini oqitish jarayonida talabalarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish.....	249
Sh.V.Djalolov	
Umumta'lim maktab tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligi va organizmning funksional holatining monitoringi.....	253
A.A.Qambarov	
Marg'ilonlik katta ashula darg'alari.....	260
D.T.Samatov	
Falsafa fanini o'qitishda multimedaviy storitellingdan foydalanishning samaradorligi.....	265
A.U.Azimov	
Yuksak axloqiy yoshlarni tarbiyalashda fuqarolik jamiyatining o'rni	269
A.A.Ahrorqulov	
Oliy ta'lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurash.....	275
D.A.Mamajonova	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiya va korrupsiyaviy xavf-xatar tushunchalari.....	279
M.M.Mamadaliyeva	
Oliy ta'lim sohasida korrupsiyaviy xavflar tahlili	282
U.O'.Musoyev	
Buxoro xonligida yer egaligi munosabatlari va ularning xududiy tavsifi.....	286
D.Y.Tashnazarov	
Yunon-rum kurashchilarini texnik usullarga o'rgatishda umumiy va maxsus tayyorgarligi	291
M.M.Alimova	
Ikkinchi jahon urushi arafasida mehnat intizomi (Buxoro viloyati)	299
R.Sh.Bozorova	
Gidropoetonimlarning onomastik birliklar tizimidagi o'rni.....	303
E.X.Zoyirov	
Ya'qubi Charxiyning "Tafsiri" da pir-murshid tushunchasi	307
A.S.Inomov	
Ichki ishlar organlarida amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar strategiyasi.....	311
I.S.Aslonov	
O'zbekistonning mustamlakachilik davrida savdo va transport yo'llari tarixi	316
B.M.Jo'raquziev	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy siyosat masalalari	320
O.Radjabov	
Qirg'izistonda temir yo'llar tarixi	324
Y.Shukurillaev	
Sho'ro Rossiyasi tomonidan Buxoro amirligining bosib olinishi jarayonida to'plagan razvedka ma'lumotlari tahlili	330
M.M.Mamatkodiurov	
Maktablarda raqamli texnologiyalardan foydalanish metodologiyasini yaratish uchun asosiy tizimli komponentlar.....	333
M.Sh.Qoraboeva	
Islom falsafasida intellektual faoliyat mezonlariga doir qarashlar tahlili	338

**FALSAFA FANINI O‘QITISHDA MULTIMEDIAVIY STORITELLINGDAN
FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI****ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНОГО СТОРИТЕЛИНГА В
ПРЕПОДАВАНИИ ФИЛОСОФИИ****EFFECTIVENESS OF THE USE OF MULTIMEDIA STORITELLING IN TEACHING
PHILOSOPHY****Samatov Dilshodbek Toxirjonovich¹****¹Samatov Dilshodbek Toxirjonovich**

– Andijon davlat pedagogika instituti Ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti.

Annotatsiya

Maqolada bugungi kunda zamonaviy oliy ta'limda falsafa fanini o'qitishda multimediyaviy storitellingning ahamiyati bilan bir qatorda storitelling tushunchasi, uning yaratilish tarixi, tarkibiy qismlari, prinsiplari, unda qo'llaniladigan servislari haqida ma'lumot beriladi. Multimediyaviy storitellingni yaratish asoslarini o'rganish falsafa fani professor-o'qituvchilari nafaqat yangi texnologiyalarni o'rganish, balki o'z materialiga global tarmoq orqali butun jahondagi barcha qiziquvchilarni jalb etishni o'rganish ekanligi tushuntiriladi.

Аннотация

В статье дается информация о концепции сторителлинга, истории его создания, компонентах, принципах, а также о значении мультимедийного сторителлинга в преподавании философии в современном высшем образовании сегодня. Изучение основ создания мультимедийного сторителлинга объясняется тем, что преподаватели философии не только изучают новые технологии, но и учатся привлекать к своему материалу через глобальную сеть всех заинтересованных лиц со всего мира.

Abstract

In addition to the importance of multimedia storitelling in the teaching of philosophy in modern higher education today, the article provides information about the concept of storitelling, the history of its creation, its components, principles, services used in it. The study of the basics of creating multimedia storitelling is explained by the fact that professors of philosophy are not only studying new technologies, but also learning to attract all interested people from all over the world through a global network to their material.

Kalit so'zlar: falsafa, metodika, dunyoqarash, zamonaviy ta'lim, multimedia, storitelling, auditoriya, video, fotosurat, audio, grafika.

Ключевые слова: философия, методология, мировоззрение, современное образование, мультимедиа, рассказывание историй, аудитория, видео, фотография, аудио, графика.

Key words: philosophy, methodology, worldview, modern education, multimedia, storitelling, audience, video, photography, audio, graphics.

KIRISH

Har bir ijtimoiy tuzum kelajagi, insoniyat istiqboli, kishilarning hayot va turmush darajasi fan va madaniyat taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Fan va madaniyat rivojlanishi ta'lim-tarbiya ishlarining qay darajada olib borilishidan kelib chiqadi. Bu falsafiy aqida davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy qonuniyat hisoblanadi. Shuning uchun mamlakatim mustaqillikka erishgach, ta'lim O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyoti sohasida ustuvor deb e'lon qilindi.

Jamiyatimiz va davlatimiz oldida turgan dolzarb vazifalardan biri inson to'g'risida g'amxo'rlik qilish, yosh avlodni yetuk shaxs, zamonamiz talablariga javob beradigan, bilimdon, yuksak ma'naviyatli, e'tiqodi mustahkam, irodasi kuchli, xalq, Vatan uchun jon kuydiradigan komil inson qilib tarbiyalash va voyaga etkazishdir[1].

Falsafiy ta'lim-tarbiya umumiy tarbiyaning ajralmas qismi bo'lib, insonni jamiyatda o'rnatilgan qonun-qoidalarga rioya etish, ularni hurmat qilishga chorlaydi. Falsafiy ta'lim - tarbiyaga alohida e'tibor qaratilib, yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoyev shunday deb yozganlar: "Barchamizga ayonki, yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqсадlari, hayotiy manfaatlari, avvalambor, uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi.[1] Albatta, bu borada yurtimizda ulkan ishlar qilinmoqda va ular amalda o'zining ijobiy natijasini bermoqda".

Kelajagi buyuk davlatni barpo etishda qatnashuvchi inson, borliq va bilishni bilib qolmasdan, falsafaning tub ma'nosini anglashi lozim. Chunki falsafa barcha fanlarning tarkibiy qismidir. Falsafiy

ta'lim- tarbiya dastlab oilada, bog'chada, maktabda boshlanadi. Lekin falsafiy ta'lim-tarbiya inson hayoti davomida doimiy ravishda davom etadigan jarayondir. Insonlarda ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasini takomillashtirar ekanmiz, fuqarolarning borliq, dunyoqarash, globallashuv, inson muammolarini bilishi, falsafa qonunlari ularga itoatkorlik, ong va ongsizlik, falsafiy madaniyatni rivojlantirish har birimizning burchimizdir. Bu borada falsafiy fan o'qituvchilari, faylasuflar va ommaviy axborot vositalarining xizmatlari katta bo'ladi va ular zimmasiga mas'uliyatli vazifalarni yuklaydi.

Falsafiy ta'lim va tarbiyani o'qitishdan ko'zlangan maqsad ham shundaki, yosh avlodni ijtimoiy madaniyatini yuksaltirish, insonlarning falsafiy bilimlarini rivojlantirish hamda bilish, falsafiy qonunlarga itoatkorlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, milliy istiqloq g'oyasi ruhida tarbiyalash asosiy maqsad qilib belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Yoshlarga falsafiy ta'lim berishda va tarbiyalashda biz uchun qadri bo'lgan milliy urf-odatlarimiz, an'analarimiz, o'chmas merosimizga mehr-muhabbat, ularga sodiqlik ruhini shakllantira olsak, har birimiz uchun ijobiy natija bajarayotgan ishlarimizning mahsuli ekanligi bilinadi. Albatta, har birimizning bolalikda eshitgan ertaklarimiz bir umrga yodda qolgan, umrimizning bolalik, o'smirlik davrlarida o'zimizni ertak qahramonlariga qiyoslaganmiz, aynan ular orqali yaxshilik va yomonlik tushunchalari o'rtasidagi farqni anglab yetganmiz. Chunki har bir ertak sodda, yodda qoladigan tilda yozilgan va hikoya xarakteriga ega bo'lib, uni o'qigan inson ertak qahramonlari olamiga sho'ng'iydi, ularning dardi, quvonchi va qayg'usiga sherik bo'lib yashaydi, yetishmagan orzulariga aynan ertak qahramonlari bilan birgalikda yetishadi. Storitelling xususida gap ketar ekan, ertakni eslaganimiz bejiz emas. Chunki hozir yozuvchi va jurnalistlar o'rtasida urf bo'layotgan mazkur atama ingliz tilidan kirib kelgan va u "hikoya qilish" ma'nosini anglatadi. Ammo hikoya qilish oddiy biror voqeani so'zlab berish emas, balki o'z o'quvchilaringizni aynan siz bilan birgalikda ana shu voqea ichida bo'lishga erishish demakdir. Chunki voqea sizning hissiyotlaringizga ta'sir etsa, sizga "tegib ketsa"gina voqeaga munosabat bildirasiz, muammo yechimiga hissa qo'shasiz.

Storitellingning asoschisi Devid Armstrong o'zining "Managing by Storying Around: A New Method of Leadership" kitobida auditoriya va xodimlarga jonli voqealar orqali ta'sir etish usullarini sanab o'tadi (1). Demak, storitelling auditoriyaga axborotni to'liq, sodda va tushunarli tilda yetkazishdir. Bugungi kunda rivojlanib borayotgan multimedia vositalari storitelling ahamiyatini yana-da kuchaytirdi.[2]

Storitelling orqali qanday maqsadlarga erishish mumkin? Avvalo, storitellingdan foydalangan pedagog quyidagi maqsadlarga erishadi:

- o'quvchi, tinglovchi, tomoshabinning ongostiga ta'sir ko'rsata oladi.
- zarur axborotni birinchi urinishdayoq yetkazadi. O'quvchi "Muallif o'zi nima demoqchi?"

degan savol bilan qiynalmaydi.[3]

Aynan mazkur usuldan fuqarolarda vatanparvarlik hissini kuchaytirish maqsadida "Sobiq Ittifoq" jurnalistlari samarali foydalanib, gazeta, radio va televideniya besh yillik ilg'orlari, qahramonlari bo'lgan shaxtyorlar, sut sog'uvchilar, paxta terimchilari bilan to'lib toshgan edi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Hozirgi kunda esa reklama materialida aynan storeitelling asosida tovarning sotilishiga erishish bir surtishda ajinlarni yo'qotadigan kremlar, harakatsiz ozdiradigan dori vositalari aniq bir qahramon misolida foydalanilmoqda.

Mamlakatimizda oliy ta'lim sifati bir tomondan o'quv rejadagi fanlarni o'qitishning zamonaviy metodlari orqali amalga oshirilishi bilan ham yuqori natijalarga erishishni ko'zlamokda. Bu maqsadda barcha oliy ta'lim muassasalari o'quv rejalariga ECTS fan sifatida kiritilgan falsafa fanini o'qitishda ana shu storitellingdan foydalanish nihoyatda katta samara berishi mumkindir.[5]

Falsafa fanini o'qitishda eng asosiysi, hikoya strukturasi to'g'ri tuzilgan va oddiy talabaga yaqin bo'lishi lozim. Muvaffaqiyatli storitelling bir nechta qoidaga asoslanadi.

Birinchi qoida bu– qisqalik. Bu sizning hikoyangiz talaba diqqatini uzog'i bilan 10 –15 daqiqa jalb etishi kifoya. Bu, ayniqsa, multimediyaviy storitellinglar uchun muhimdir. Hikoyangiz uchun auditoriyani qiziqтира oladigan yorqin qahramon zarur. Hikoyadagi voqea tugallangan bo'lishi lozim. Storitellingda xulosani ochiq qoldirish yaramaydi. Talaba voqea nima bilan tugashini o'ylab

o'tirmay, o'z savollariga javob olishi zarur. Matn qiziqarli bo'lishi va talabani uning davomini o'qishga qiziqtirishi kerak.[4]

Ma'ruzachi pedagog hikoya orqali o'z fikrini talaba ongiga sezdirmasdan singdirib, hikoya so'nggida talabani muayyan harakatlarga undashi lozim. Auditoriya hissiyotlariga ta'sir o'tkazish storitellingning asosiy vazifasidir. Matn aniq maqsadli auditoriyaga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Agarda storitelling bosma tarqatma materiallar orqali berilsa, unda fotosuratdan, internetda esa multimedia imkoniyatlaridan keng foydalanish kerak.

Storitelling nimaligini tushunib olgach, endilikda dolzarb bo'lgan multimediaviy storitelling xususida so'z yuritimiz. Zero, bugungi kunda u jahon yetakchi oliy ta'lim muassasalarida eng yahshi o'qitish metodikasiga aylanib ulgurdi. Hatto AQSHning Berkli shahridagi Kaliforniya universiteti Falsafa fakultetida Digital Storytelling, ya'ni raqamli storitelling asosiy fanlar sirasiga kiradi.[4] Multimediaviy storitelling o'z ichiga video, foto, grafika va audioinformatsiyani qamrab oladi. Albatta, ularni bir joyga jamlash va bir mantiqiy chiziq bo'ylab hikoyani tuzish orqali o'quvchi hissiyotiga sezilarli ravishda ta'sir ko'rsatish mumkin. Storitelling oddiy longriddan farqli o'laroq chiziqsiz formatga ega, ya'ni talaba hikoyadan o'ziga qiziqarli bo'lgan qismini ko'rish, o'qish va eshitish imkoniga ega bo'ladi. Shuning uchun har bir qism unga tugallangan axborotni bera olishi zarur. Bunday falsafiy storitelling o'z ichiga nafaqat asosiy ma'lumotlarni, balki mavzuga oid statistik ma'lumotlar, boshqa resurslarga havolalarni ham qamrab oladi va talabani mavzuga yanada chuqurroq kirib borish imkonini kengaytiradi. Qanchalik chuqur kirishni har bir talaba o'zi tanlaydi.

Har qanday internetdagi veb-sahifa multimediaviy saytlar multimediaviy storitellingga kirmaydi. Ularga matn, audio, videoni joylashtirish mumkin. Ular aksariyat holatlarda interaktiv grafika ham aks etadi.[6] Ammo mazkur saytlarga joylashtiriladigan voqealar, yangiliklar aksariyat faqat grafika yoki fotosurat bilan bezatiladi. Har bir matn, audio yoki video saytda mustaqil mazmun kasb etadi. Multimediaviy storitellingda esa har bir ko'rinish, ya'ni video, matn, fotosurat, audio va grafika bitta hikoyaga integrallashgan bo'ladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Multimedaviy storitelling falsafa fani o'qituvchilaridan universallik va zamonaviy texnika vositalarini yaxshi tushunishni talab etadi. Agarda siz videoga tushirib, uni montaj qila olsangiz, audioroliklar yozsangiz, yaxshigina matn yozib, suratga tushsangiz, demak, siz konvergent pedagog bo'la olasiz.

Buni amalga oshirish uchun, avvalo, biror bir mavzuni tanlab, dastlabki ma'lumotlarni yig'ishga kirishish zarur. Ular audio, video, fotosurat va raqamlar ko'rinishida bo'lishi zarur. Birinchi bosqichda ta'limiy material strukturasi chizib chiqing. Albatta, materialning har bir qismi boshqasi bilan mantiqiy bog'langan bo'lishi lozim. Masalan, siz bugungi kunda respublikamiz OAVda ko'p e'tibor berilayotgan maishiy chiqindilarni yig'ish, qayta ishlash va utilizatsiya qilish mavzusini tanlagan bo'lsangiz, avval chiqindining bir turiga e'tiboringizni qarating. Agarda chiqindidan aziyat chekayotgan aholi punkti va u yerda yashovchi qahramonni topsangiz yana ham yaxshi.

Bevosita aholi punktining boshqaruv organlari, fuqarolar sog'lig'ini saqlashga va sanitariya-gigenaga mas'ul shaxslar, chiqindini chiqarishga mas'ul idoralar, uni qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi korxonalar mas'ullaridan audio va video formatda intervyular olish, aholi punktidan bir kunda qancha va nechta turdagi chiqindi chiqishi, ularni qayta ishlashdagi muammolar (masalan qog'oz, shisha, politielen qayta ishlanadi, qolganlari umumiy chiqindixonaga tashlanadi), chiqindining aholi sog'lig'i va atrof-muhitga zarari xususidagi statistik ma'lumotlar yig'ilgach, hikoyangizni quyidagicha mantiqiy qismlarga ajratib chiqing.

- nega bu mavzu muhim (tarixi va bugungi kuni);
- hikoya joyi (tarixi va muammoga aloqadorligi);
- hikoya qahramonlari va ularning mavzu bilan bog'liq muammolari;
- mutaxassislar fikrlari;
- mavzu doirasidagi boshqa ma'lumotlar (infografika, grafika shaklida).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Agarda ana shu prinsiplar bo'yicha to'plangan materiallaringizni joylashtirsangiz, ular chiziqsiz formatga hamda alohida mustaqil ma'noga ega bo'ladi. Storitellingning bosh sahifasi esa

asosiy surat va hikoyaning turli qismlariga havolalarni o'z ichiga oladi. Shundan so'ng hikoyangizni quyidagicha qismlarga ajrating:

Video, fotosurat, audio, grafika va matn. Hikoyangizning qaysi qismi videoformatda, qaysisi audio va suratlarda yaxshiroq aks etishini o'ylab ko'ring. Animatsiyalashgan grafikalar aynan solishtirma xarakterga ega bo'ladi va o'quvchi diqqatini o'ziga tortadi. Sizning hikoyangizga xarita zarurmi? Agarda zarur bo'lsa interaktiv xaritadan foydalansangiz, o'quvchiga hikoyangiz aynan aholi punktining qaysi nuqtasida rivojlanayotganini yaqqol ko'rsatishga xizmat qiladi. Storitellingda matn siz axborotni video, audio yoki fotosurat orqali bera olmaydigan joyda qo'llash uchun zarurdir. Sizning jurnalistik materialingizning har bir qismi bir-birini to'ldirishi lozim. Multimediyaviy storitellingning asosiy jihati uning interfaolligidir.

Interfaollikni quyidagi servislar orqali amalga oshirish mumkin:

<https://juxtapose.knightlab.com> – qiyosiy ikkita “oldin” va “keyin” fotosuratni solishtirish imkoniyatini beradi.[7] <http://storymap.knightlab.com> interaktiv xaritani yaratish uchun qulay servis. wirewax.com ekin thinglink.com servislari esa o'z navbatida interaktiv video yoki ftoni yaratish imkonini beradi [8].

ZooBurst – ushbu servis orqali sizda 3D pop-up formatdagi raqamli kitobingizni yaratish imkoni mavjud. Servis ma'lumotlar bazasida 10 000 dan ortiq bepul tasvirlar va boshqa materiallar bor [9]. ZooBurst foydalanuvchilari giperhavoladan foydalangan holda o'z kitobchalari bilan ulashishlari mumkin.

StoryBird bir-ikki daqiqa ichida raqamli vizual hikoyalarni yaratish imkonini beruvchi bepul resurs [10]. Butun dunyo animator va illyustratorlari ijodidan foydalangan holda o'z hikoyangizni yorqinroq, ko'rimliroq qilish mumkin.

Multimediyaviy storitellingni yaratish asoslarini o'rganish jurnalistlarga nafaqat yangi texnologiyalarni o'rganish, balki o'z materialiga global tarmoq orqali butun jahondagi barcha qiziquvchilarni jalb etish imkoni hamdir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.Mirziyoev Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz Toshkent - "Ozbekiston"-2016.yil.
2. Armstrong David. Managing by Storying Around: A New Method of Leadership. – New York: Doubleday Currency, 1992. – 246 p.
3. Сторителлинг–самый эффективный метод донесения нужной информации. <http://www.publicsuccess.ru/info/articles/storitelling>.
4. Albert R. S., Runco M.A. A History of Research on Creativity. – Cambridge: Cambridge University press, 1999. Pp. 16-31.
5. Begimkulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. Monografiya. -T.: Fan, 2007.
6. Voinova M.G. Pedagogicheskiye tehnologii i pedagogicheskoye masterstvo. – T.: "Iqtisod-moliya", 2006.
7. <https://juxtapose.knightlab.com>
8. <http://storymap.knightlab.com>
9. https://www.zooburst.com/zb_books-viewer-embedssl.php
10. <https://storybird.com/create>